

## OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA CHORALAR

**Qurbonov Jahongir Akbarali o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19592387>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishda jinoyat huquqi vositalarining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Unda oilada sodir etiladigan zo‘ravonlik harakatlarining asosiy ko‘rinishlari hamda ularning inson huquqlari va ijtimoiy barqarorlikka ta‘sirini ochib beriladi. Muallif tomonidan amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan jinoiy ta‘sir choralarining qo‘llanishi tahlil qilinib, zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, jabrlangan shaxslar manfaatlarini himoya qilish hamda aybdorlarni javobgarlikka tortishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** maishiy zo‘ravonlik, oiladagi huquqbuzarliklar, jinoiy-huquqiy ta‘sir, himoya kafolatlari, javobgarlik instituti, profilaktik faoliyat.

**Аннотация.** В данной научной статье раскрывается роль и значение уголовно-правовых средств в противодействии семейному (бытовому) насилию. Рассматриваются основные формы насильственных действий в семье, а также их влияние на права человека и социальную стабильность. Анализируется применение мер уголовно-правового воздействия, предусмотренных действующим законодательством. Особое внимание уделяется приоритетным направлениям предупреждения насилия, защите прав пострадавших и привлечению виновных лиц к ответственности.

**Ключевые слова:** семейное насилие, бытовое насилие, уголовно-правовое воздействие, гарантии защиты, институт ответственности, профилактика.

**Annotation.** This scientific article examines the role and significance of criminal law mechanisms in combating domestic (family) violence. It explores the main forms of violence occurring within the family and their impact on human rights and social stability. The paper analyzes the application of criminal liability measures established in current legislation. Special attention is given to priority areas such as prevention of violence, protection of victims' rights, and ensuring accountability of offenders.

**Keywords:** domestic violence, family-related offenses, criminal law measures, protection guarantees, liability framework, preventive activity.

**KIRISH.** Jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri-unda insonning sha‘ni, qadr-qimmatini va xavfsizligi qay darajada ta‘minlanganligidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik hodisasi nafaqat alohida shaxs huquqlariga tajovuz qiluvchi, balki jamiyatning ijtimoiy va ma‘naviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, oilaning jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatidagi o‘rni hisobga olinsa, unda yuzaga keladigan zo‘ravonlik holatlari butun ijtimoiy tizimga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi tabiiydir.

Oilaviy zo‘ravonlik turli ko‘rinishlarda - jismoniy, ruhiy va jinsiy shakllarda namoyon bo‘lib, ko‘pincha yashirin tarzda sodir etilishi bilan ajralib turadi. Bu esa uni aniqlash, samarali choralar ko‘rishni yanada murakkablashtiradi.

Natijada jabrlanuvchilar ko'p hollarda o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib qoladi yoki turli ijtimoiy, psixologik omillar sababli murojaat qilishdan tiyiladi. Bu esa ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xususan, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish hamda huquqbuzar shaxslarga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini qo'llashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy choralar alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki aynan jinoiy javobgarlik instituti orqali bunday huquqbuzarliklar uchun muqarrar jazo ta'minlanadi, bu esa o'z navbatida umumiy va maxsus profilaktika vazifasini bajaradi.

Jinoyat-huquqiy choralar nafaqat sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikni belgilaydi, balki bunday holatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, xalqaro huquq tizimida ham oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro hujjatlarda davlatlarning bu boradagi majburiyatlari, jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlari hamda zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan choralar belgilab berilgan. Shu sababli milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**ASOSIY QISM:** Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bugungi jamiyatda nafaqat shaxs huquqlarini buzuvchi, balki ijtimoiy barqarorlikka sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadigan murakkab va dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu hodisa oilada turli shakllarda - jismoniy, ruhiy va jinsiy tajovuz ko'rinishlarida yuzaga chiqadi va ko'pincha yashirin tarzda sodir etiladi. Michael P. Johnson fikriga ko'ra, oilaviy zo'ravonlik bir xil shaklda namoyon bo'lmaydi, balki u turli ijtimoiy va psixologik omillarga bog'liq holda turlicha ko'rinishda yuzaga keladi.

Johnson bu fenomenni chuqur tahlil qilgan holda, zo'ravonlikni ikki asosiy turga ajratadi: "nazoratga asoslangan zo'ravonlik" va "situatsion zo'ravonlik". Nazoratga asoslangan turda bir shaxs boshqa shaxs ustidan doimiy va tizimli hukmronlik o'rnatishga harakat qiladi, bu esa jabrlanuvchini jismonan, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan nazorat ostida ushlab qaratilgan bo'ladi. Situatsion zo'ravonlik esa odatda vaqtinchalik nizolar yoki stress natijasida yuzaga chiqadi va tizimli xususiyatga ega emas.

Johnsonning fikricha, aynan nazoratga asoslangan zo'ravonlikda jinoyat-huquqiy choralarni qo'llashning ahamiyati katta. Chunki bu turdagi zo'ravonlik uzoq muddat davom etadi, jabrlanuvchining ruhiy holatini zaiflashtiradi va kelajakda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli qat'iy huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash nafaqat adolatni ta'minlash, balki profilaktik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Johnson ta'kidlaganidek, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash nafaqat jinoyatni aniqlash va jazoni qo'llashdan iborat bo'lmay, balki jamiyatning huquqiy ongini oshirish, oilaviy munosabatlarni sog'lomlashtirish va jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimini

mustahkamlashni ham o'z ichiga oladi. Shu yo'l bilan nafaqat alohida shaxslar huquqlari himoya qilinadi, balki oila va butun jamiyat barqarorligi ham ta'minlanadi<sup>1</sup>.

Muallif Nodira Abdullayeva o'z tadqiqotida oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning turli shakllari va kelib chiqish omillarini o'rganadi. Uning tadqiqotlarida, individual xususiyatlar, oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy-madaniy omillar hamda psixologik faktorlar oiladagi zo'ravonlikni yuzaga keltiruvchi asosiy determinantlar sifatida xizmat qiladi. Muallifning fikricha, oilaviy zo'ravonlikning tarqalishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash va profilaktika hamda aralashuv strategiyalarini integratsiyalashgan tarzda qo'llash muhimdir.

Abdullayevaning ta'kidlashicha, oiladagi zo'ravonlik nafaqat jabrlanuvchilarga, balki butun oilaviy tizim va jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, samarali kurash nafaqat jinoyat-huquqiy choralarni qo'llashdan iborat bo'lmay, balki huquqiy, psixologik va ijtimoiy vositalarni uyg'unlashtirish orqali jabrlanuvchilarni himoya qilish va oiladagi nizolarni barvaqt bartaraf etishga xizmat qiladi. Muallifning fikricha, oilaviy zo'ravonlikni oldini olishda davlat siyosati, ijtimoiy institutlar va mahalliy hamjamiyatlarning roli muhim ahamiyatga ega<sup>2</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlar va olimlarning nazariyalari asosida oilaviy zo'ravonlikni aniqlash va unga qarshi samarali choralar ko'rishda faqatgina huquqiy yondashuv yetarli emas. Shu bilan birga, psixologik qo'llab-quvvatlash, oilaviy maslahat va ta'lim dasturlarini ham integratsiyalash kerak. Jabrlanuvchilarning ruhiy va ijtimoiy himoyasi, oilaviy nizolarni barvaqt bartaraf etish va zo'ravonlikning takrorlanish ehtimolini kamaytirish, shuningdek, jamiyatdagi huquqiy ongni oshirish bu yondashuvning ajralmas qismi bo'lishi zarur. Shu yo'l bilan nafaqat individual huquqlar himoya qilinadi, balki oilaviy tizim va butun jamiyat barqarorligi ham ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonuni oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka qarshi choralarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Qonunda jinoyat va ma'muriy javobgarlik mexanizmlari kuchaytirilib, jabrlanuvchilarning himoyasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirildi. Sud jarayonlarida yarashuv va vositachilik mexanizmlari aniqlashtirilib, jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili huquqlari mustahkamlandi. Shu bilan birga zo'ravonlikka oid ma'lumotlarni qayd etish va monitoring tizimi takomillashtirilib, oldini olish va profilaktika choralari alohida e'tibor qaratildi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59- 2<sup>4</sup> -modda oilaviy munosabatlarda sodir etilgan yengil shikast va huquqbuzarliklarni tartibga soladi. Ushbu norma xotin-erkak, sobiq turmush o'rtog'i, birga yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga nisbatan sodir etilgan, sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining

<sup>1</sup> Johnson, M. P. (2006). Conflict and control: Gender symmetry and asymmetry in domestic violence. *Violence Against Women*, 12(11), 1003–1018. <https://doi.org/10.1177/1077801206293328>

<sup>2</sup> Abdullayeva, N. O. (2025). The Complex of Factors of Family (Domestic) Violence. *International Journal of Law and Criminology*, 5(04), 29–34. <https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume05Issue04-07>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz/docs/-7165389>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks: <https://lex.uz/acts/-97664>

qisqa muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish, shuningdek, mol-mulkka, ta'lim olishga, sog'liqni saqlash va mehnat huquqlariga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni nazarda tutadi. Shu tariqa, modda oiladagi kichik nizolar va yengil jismoniy ta'sirlarni huquqiy nazoratga olish imkonini yaratadi. 59-2-modda jabrlanuvchining asosiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Shaxsiy daxlsizlik, mol-mulk va sog'liqni saqlash huquqlarining himoyasi moddaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu huquqiy vosita oiladagi kichik nizolarni oshib ketmasligini ta'minlaydi va jabrlanuvchiga himoya mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Ushbu modda jinoyat darajasiga yetmaydigan, ammo zarar yetkazadigan yengil harakatlar uchun ma'muriy javobgarlik choralarini belgilaydi. Jazolar jarimalardan tortib, 15 sutkagacha ma'muriy qamoq shaklida qo'llaniladi va bu harakatlarning og'irligi hamda oqibatlariga mos tarzda belgilanadi. Shu yo'l bilan qonun oilaviy zo'ravonlikning dastlabki bosqichlarida nazoratni ta'minlaydi. 59-2-modda profilaktik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. U oiladagi nizolarni tez va sodda tartibda hal qilish, jabrlanuvchini himoya qilish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chora ko'rish imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, 59-2-modda oilaviy zo'ravonlikning yengil shakllarini tartibga soluvchi samarali huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi<sup>5</sup>da oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarni aniq belgilab, oilaviy munosabatlarda huquqiy himoyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu norma xotin-erkak, sobiq turmush o'rtog'i, birga yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga nisbatan sodir etilgan jismoniy zarar, mol-mulkka va huquqlarga to'sqinlik, shaxsiy obro' va qadr-qimmatni tahqirlash, qo'rqitish va boshqa zararli harakatlarni jinoyat sifatida tan oladi. Shu orqali qonun jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini himoya qilish imkonini yaratadi. Mazkur modda jabrlanuvchining sog'ligi, mol-mulki va shaxsiy daxlsizligini himoya qilishni ta'minlaydi, shuningdek, zo'ravonlikka qarshi choralar tizimini aniq belgilaydi.

Jinoyatning og'irligi va yetkazilgan zarar darajasiga qarab jazolar jarimalardan tortib, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari va ozodlikdan mahrum qilishgacha belgilanadi. Shu yo'l bilan qonun nafaqat jabrlanuvchini himoya qiladi, balki sodir etuvchiga ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu modda oilaviy zo'ravonlikning profilaktik jihatini ham mustahkamlaydi. Jinoyat sifatida aniqlash va tizimli javob choralarini belgilash orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jabrlanuvchilar uchun ishni samarali tashkil etadi. Bu oilaviy nizolarni tez va qonuniy yo'l bilan hal qilish, shaxslar o'rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlash va jamiyatda xavfsizlikni oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, 126-1-modda zo'ravonlikning turli darajalarini- yengil, o'rta va og'ir shikast yetkazish - alohida ko'rsatib, qonuniy me'yorlarni aniq qiladi. Bu huquqiy jihatdan jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash bilan birga, jinoyatning oqibatlari va og'irligiga mos ravishda jazolarni qo'llashni kafolatlaydi. Shu tariqa, modda oiladagi nizolarni kamaytirish va adolatni mustahkamlash bo'yicha samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111453>

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasi<sup>6</sup> jabrlanuvchi va uning qonuniy vakiliga oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan bog'liq ishlar bo'yicha yarashuv to'g'risidagi arizani sud muhokamasining istalgan bosqichida, biroq sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin berish imkoniyatini yaratadi. Ushbu norma oiladagi nizolarni sud jarayoni orqali hal qilishda ixtiyoriy kelishuv mexanizmini mustahkamlashga qaratilgan.

Ushbu modda yarashuv institutini jabrlanuvchi uchun samarali himoya vositasi sifatida belgilaydi. U jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarni qoplash, oiladagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish va nizolarni sud ishtirokisiz hal qilish imkonini beradi. Shuningdek, 583-modda yarashuv natijasida ish yuritilishini tugatish mexanizmini ta'minlaydi. Ya'ni, agar jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs kelishib, yetkazilgan ziyonni qoplagan bo'lsa, ish bo'yicha sud jarayoni to'xtatiladi. Bir nechta jabrlanuvchi mavjud bo'lganda esa, ish faqat barcha jabrlanuvchilar yarashuvni amalga oshirgan taqdirda yakunlanadi, bu esa bir tomonning ixtiyoriy roziligisiz ishni tugatishning oldini oladi.

Shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud vakolatli organlari tomonidan jabrlanuvchiga yarashuvning sud tomonidan tasdiqlanishi, shuningdek, ishni qayta tiklash huquqining yo'qolishi haqida tushuntirish berilishini majburiy qiladi. Bu huquqiy mexanizm jabrlanuvchining o'z huquqlari va imkoniyatlaridan xabardor bo'lishini ta'minlaydi hamda noaniqlikni oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, 583-modda oilaviy zo'ravonlik ishlarida yarashuv institutini sud amaliyotida qo'llash, jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasida adolatli va tinch kelishuvni rag'batlantirish, shuningdek, ish yuritilishini tez va qonuniy tartibda tugatish imkonini yaratadigan muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ayollarga qarshi barcha shakldagi kamsitishni yo'q qilish to'g'risida"gi konvensiya<sup>7</sup> (cedaw, 1979) oilaviy zo'ravonlikni gender asosidagi kamsitish shakli sifatida tan oladi va davlatlarni bu muammoga qarshi birgalikda huquqiy choralar ko'rishga chaqiradi. Konvensiya oiladagi zo'ravonlikni faqat oilaviy nizolar doirasida emas, balki inson huquqlari va ijtimoiy adolat masalasi sifatida ko'rib chiqadi. Davlatlar milliy qonunchilikni takomillashtirib, oilaviy zo'ravonlikning barcha shakllarini aniqlovchi huquqiy asoslar yaratishi lozim. Buning ichiga jinoyat huquqi choralari belgilash, jabrlanuvchilarni himoya qilish va profilaktik holatlarni joriy etish kiradi.

Shuningdek, konvensiya jabrlanuvchilarga psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatishni ta'minlashni tavsiya qiladi. Jabrlanuvchilarga tezkor himoya choralari yaratish va ularni xavfsiz muhitga qo'yish zarurati ta'kidlanadi. Profilaktika va ta'lim tadbirlari orqali huquqiy ongini oshirish va oilaviy munosabatlarda hurmatni rivojlantirish konvensiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi, bu orqali zo'ravonlikning takrorlanish ehtimoli kamayadi.

Cedaw oilaviy zo'ravonlikni jinoyat va ijtimoiy muammo sifatida, shuningdek, inson huquqlari va gender tengsizligi muammosi sifatida tan oladi. Ushbu konvensiya davlatlarni zo'ravonlikka qarshi kurashishda va jabrlanuvchilarni himoya qilishda aniq majburiyatlar bilan ta'minlaydi.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111460>

<sup>7</sup> United Nations. (1979). Convention on the elimination of all forms of discrimination against women. Adopted 18 december 1979, entered into force 3 september 1981. United Nations. <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw>

Declaration on the Elimination of Violence against Women<sup>8</sup>- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni yo‘q qilish deklaratsiyasi bo‘lib, u ayollarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjat vazifasini bajaradi. Mazkur hujjat ayollarga qarshi turli shakldagi zo‘ravonlikni o‘rganib, uni inson huquqlarini jiddiy buzish deb belgilaydi. Shu bilan birga, deklaratsiya davlatlarni jabrlanuvchilarning himoyasini ta‘minlash, zo‘ravonlik holatlarini oldini olish va jinoyatlarni aniqlash hamda javobgarlikni ta‘minlashga majbur qiladi. Bu jarayon oiladagi zo‘ravonlik, jinsiy tajovuz va jismoniy zarar kabi hollarda ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Deklaratsiya nafaqat huquqiy bazani yaratadi, balki milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga ham xizmat qiladi. Bu orqali davlatlar o‘z qonunlarini ayollarning huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan xalqaro qoidalar bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bilan birga, hujjat jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan aholining ogohligini kuchaytirishga yordam beradi.

Oilaviy zo‘ravonlik mavzusida bolalar huquqlari ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham xalqaro hujjatlar muhim ahamiyatga ega. BMT Bolalar huquqlari konvensiyasi<sup>9</sup> har bir bolani barcha shakldagi zo‘ravonlikdan himoya qilishga chaqiradi va davlatlarni bu himoyani ta‘minlashga majbur qiladi. Konvensiya bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xavfsizligini birdek ta‘minlashni talab qiladi. Shu jumladan, oilaviy zo‘ravonlik vaziyatlarida bolalar jabrlanuvchi sifatida alohida e‘tibor ostida bo‘lishi lozim. Ularning ta‘lim olish, sog‘lom o‘sish va xavfsiz muhitda tarbiya topish huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ayollarga va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi xalqaro hujjatlar birgalikda jamiyatda barqaror va adolatli tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Davlatlar ushbu hujjatlar asosida milliy qonunlarni takomillashtirib, jabrlanuvchilarga tezkor va samarali yordam ko‘rsatish, jinoyatlarni fosh qilish va zo‘ravonlikni takrorlanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yadi. Shu tariqa, deklaratsiya va konvensiya ayollar va bolalarning huquqlarini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va xavfsiz muhit yaratishda mustahkam huquqiy poydevor vazifasini bajaradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, oilaviy zo‘ravonlik - bu jamiyatdagi eng jiddiy ijtimoiy va huquqiy muammolardan biri bo‘lib, u nafaqat jabrlanuvchining jismoniy va ruhiy sog‘ligiga, balki oilaning barqarorligiga, farzandlarning tarbiyasi va ijtimoiy muhitga ham salbiy ta‘sir qiladi.

Oilaviy zo‘ravonlik turli shakllarda- jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy - namoyon bo‘lishi mumkin va u ko‘pincha oilaning ichki munosabatlarida, yetarli e‘tibor berilmagan nizolar va ijtimoiy stereotiplardan kelib chiqadi. Bu muammo nafaqat jabrlanuvchilarga, balki butun jamiyatga salbiy oqibatlar keltiradi, chunki zo‘ravonlikning takrorlanishi yangi avlod tarbiyasiga ham ta‘sir qiladi, ijtimoiy stress va psixologik muammolarni kuchaytiradi.

Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMTning Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni yo‘q qilish deklaratsiyasi, davlatlarni jabrlanuvchilarni himoya qilish, zo‘ravonlikni aniqlash va unga javobgarlikni belgilashga majbur qiladi.

<sup>8</sup> United Nations General Assembly. Declaration on the Elimination of Violence against Women, A/RES/48/104. Retrieved from <https://digitallibrary.un.org/record/179739?ln=en&v=pdf>

<sup>9</sup> United Nations. (1989). Convention on the Rights of the Child. UNICEF. <https://www.unicef.org/child-rights-convention/convention-text>

Shu bilan birga, milliy qonunchilik ham xalqaro standartlarga moslashtiriladi, bu esa oilaviy zo‘ravonlikni kamaytirish va oldini olishga imkon beradi. Qonunchilik nafaqat jinoyatchilarni jazolash, balki jabrlanuvchilarga psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy ongni oshirish va oilalarda xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishning muhim jihatlaridan biri -bolalarni himoya qilishdir.

Zo‘ravonlikning bolalarga ta’siri uzoq muddatli psixologik travma, tahdid va tarbiyaviy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, davlatlar BMT Bolalar huquqlari konvensiyasi asosida har bir bolani jismoniy, ruhiy va ijtimoiy zarar yetkazilishidan himoya qilishga majburdir. Oilaviy zo‘ravonlikni kamaytirish nafaqat jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta’minlaydi, balki jamiyatda barqarorlik, oilaviy mustahkamlik va sog‘lom avlod tarbiyasini yaratadi.

Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish - bu ijtimoiy, huquqiy va psixologik jihatdan yondashuvni talab qiladigan jarayon. Davlatlar va jamiyat birgalikda qonuniy choralar, ijtimoiy yordam va profilaktika dasturlari orqali oilaviy zo‘ravonlikni kamaytirishi, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishi va kelajak avlod uchun xavfsiz va sog‘lom muhit yaratishi kerak. Shu tariqa, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish jamiyatning barqarorligi, oilaning mustahkamligi va inson huquqlarini ta’minlashning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonuni: <https://lex.uz/docs/-7165389>
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks: <https://lex.uz/acts/-97664>
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111453>
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111460>
5. Johnson, M. P. (2006). Conflict and control: Gender symmetry and asymmetry in domestic violence. *Violence Against Women*, 12(11), 1003–1018. <https://doi.org/10.1177/1077801206293328>
6. Abdullayeva, N. O. (2025). The Complex of Factors of Family (Domestic) Violence. *International Journal of Law and Criminology*, 5(04), 29–34. <https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume05Issue04-07>
7. United Nations. (1979). Convention on the elimination of all forms of discrimination against women. Adopted 18 december 1979, entered into force 3 september 1981. United Nations. <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw>
8. United Nations General Assembly. Declaration on the Elimination of Violence against Women, A/RES/48/104. Retrieved from <https://digitallibrary.un.org/record/179739?ln=en&v=pdf>
9. United Nations. (1989). Convention on the Rights of the Child. UNICEF. <https://www.unicef.org/child-rights-convention/convention-text>